

O'ZBEKISTON TARIXI



ENEOLIT VA BRONZA DAVRI

O'rta Osiyoda dehqonchilik madaniyatining paydo bo'lishi eramizdan avvalgi 3-2 ming yilliklarga to'g'ri keladi. Eramizdan avvalgi 3-ming yillikning ikkinchi yarmi, 2-ming yillikning birinchi yarmida Amudaryoning yuqori qismida aholi punktlari paydo bo'lgan edi. Bu yerlik aholi Badaxshon yoqutini (lazurit) ishlab chiqish va sotish ishlarida ishtirok etardi. Shuningdek ular bilan Hindistondagi Xarapp madaniyati o'rtasida o'sha davrdayoq aloqalar mavjud bo'lgan. Eramizdan avvalgi 2-ming yillikda hind-eron (oriylar) qabilalarining O'rta Osiyo hududi va unga tutushgan sahrolar orqali janubda Hindiston, janubiy-sharqda Midiya va Fors davlati, sharqda Sharqiy Turkiston sari migrasiyasi yuz bergan.

Dehqonlarning qadimiy maskanlaridan bo'lgan Zarafshon vohasidagi Zamonbobo hududida uy hayvonlarining suyaklari, bug'doy va arpa donlari, toshdan yasalgan dehqonchilik uskunalari topilgan. Panjikentdan uncha uzoq bo'lmagan Sarazm qishlog'i atrofida eneolit va bronza davriga oid dehqonchilik maskani topilgan bo'lib, uning hududi 90 gektardan ziyodroq maydonni qamrab oladi. Qadimiy dehqonchilik maskanlari Surxondaryoda - Sopollitepa va Jaro'qtonda ham topilgan. Xorazm hududida topilgan va bronza davriga oid bo'lgan arxeologik yodgorliklar Tozabog'yobsoy dehqonchilik madaniyati nomini olgan. Ko'kcha, Qavat-3 dehqonchilik maskanlari 2-ming yillikning o'rtalarida vujudga kelgan. Bu yerda qadimiy kanallar mavjud bo'lgani aniqlangan. Eramizdan avvalgi 1-ming yillikning boshlarida Xorazmda sun'iy sug'orish texnikasi rivoj topishi asnosida Amirobod madaniyati shakllangan. Shu tariqa Farg'ona vodiysi aholisi ham asta-sekinlik bilan o'troq turmush tarziga o'tib, dehqonchilik bilan

shugʻullana boshlaydi. Xususan, eramizdan avvalgi 2-ming yillikning yakuni va 1-ming yillikning boshida Fargʻona vodiysida Chust dehqonchilik madaniyati paydo boʻlgan. 1-ming yillikning boshlarida Samarqand, Marv, Yerqoʻrgʻon, Axsikent, Xiva kabi shaharlar vujudga keladi. Shuningdek, ushbu davrda zardushtiylikning Avesto kitobi va qahramonlik eposlari paydo boʻldi.

QADIMGI BAQTRIYA PODSHOLIGI

Oʻrta Osiyodagi qadimiy davlatchilik tuzilmalaridan biri Qadimgi Baktريا davlatidir. Qadimiy manbalar shundan dalolat beradiki, eramizdan avvalgi VIII asrda yirik Baktريا podsholigi mavjud boʻlgan. Avestoda uning nomi Baxdi, Bihistun yodgorliklarida Baktrish, antik davr adabiyotlarida Baktriana sifatida qayd etilgan. Qadimgi Baktريا bilan oʻsha davr dunyosining boshqa davlatlari - Ossuriya, Yangi Vavilon, Midiya, Hindiston knyazligi oʻrtasida aloqalar mavjud boʻlgan. Tarixiy manbalarga koʻra, Ossuriya hukmronligi (gegemonligi) qaror topgan eramizdan avvalgi IX-VII asrlarda ossuriyaliklar Baktriyaga hujum qilishgan. Bu harakat tarixda Ossuriya yurishi nomi bilan maʼlum. Bu yurishning asosiy sababi Baktريا lazuriti ustidan nazorat oʻrnatishga qaratilgan edi.

Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Qadimgi Baktريا podsholigi hududiga Surxon, Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Margʻiyona va Sugʻd yerlari kirgan. Baktriyalik ustalar tomonidan tilla, tosh va bronzadan yasalgan turli mahsulotlar Xitoy, Fors davlati va Yevropada juda mashhur boʻlgan. Baktriyaning yirik shaharlari Qiziltepa, Yer-Qoʻrgʻon, Uzunqir va Afrosiyob hududlarida joylashgan. Oʻsha davrda Baktriyaga tashrif buyurgan sayyoh eʼtiborini uylar, hunarmandlarning ustaxonalari va xoʻjalik binolari uzra boʻy choʻzib turgan salobatli minoralar tortishi tabiiy edi. Kursiy Rufning yozishicha, "Baktriyaning tabiati boy va turli-tuman. Ayrim joylarda daraxtlar va toklar oʻta sermahsul hosil beradi, hosildor yerlar koʻplab buloqlardan suv ichadi. Yumshoq yerlarga bugʻdoy ekiladi, qolgani esa chorva uchun yaylovlardir".

QADIMGI XORAZM

Oʻrta Osiyoning ikki daryo oraligʻidagi yerlari qadimdan Xorazm nazorati ostida boʻlgan. Xorazmning nomi Avestoda Xvariazm, Bihistun yozmalarida Xvarazmish, Arrian va Strabonning tarixiy kitoblarida Xorasmiya sifatida keltiriladi. VIII asrda arab istilochilari tomonidan vayron etilgan Xorazm madaniyati tarixi eramizdan avvalgi 1292-yillarga borib taqaladi. Xorazm butun mintaqa uchun Avestoning muqaddas yeri, qadimiy madaniyat markazi sanalgan. Eramizdan avvalgi VII-VI asrlardayoq Xorazm hududida davlatchilik tuzilmalari mavjud edi. Arxeologik maʼlumotlar shundan dalolat beradiki, eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning ikkinchi choragidayoq Amudaryo daryosiga tutashgan kuchli irrigasiya tizimi mavjud boʻlgan. Xorazmda yirik kanallarni tashkil etish uchun markazlashgan kuchli boshqaruv kerak boʻlgani tabiiy. Eramizdan avvalgi VI asrning oʻrtalarida Xorazm Fors podsholigi tomonidan bosib olingan. Forsiylar Xorazmdan turli qimmatbaho toshlarni, zargarlik va kulolchilik mahsulotlarini tashib ketgan. Eng yaxshi ustalar ham Fors podsholari saroyiga olib ketilgan. Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Xorazm Fors podsholidan ozod boʻlib, oʻz mustaqilligini qayta tiklaydi. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda Xorazm yozuvi paydo boʻlgan. Xon qarorgohi - Tuproq qalʼa, qadimiy maqbara va rasadxona Qoʻy-Qirilgan qalʼa ham oʻsha davrlardayoq mavjud boʻlgan. Grek manbalarining shohidlik berishicha, eramizdan avvalgi 329-328-yillarda Xorazm xoni Farisman

yunonistonlik Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) bilan tinchlik bitimi tuzgan.

ISKANDAR ZULQARNAYNING OʻRTA OSIYOGA YURISHI

Eramizdan avalgi 334-yilda Iskandar Zulqarnayn Osiyoga yurish boshladi. U Kichik Osiyo, Suriya, Finikiya, Misr va Eronni zabt etib, 329-yilning bahorida Hindikush togʻini kesib oʻtib Oʻrta Osiyoga hujum qildi. Baqtriya va Soʻgʻdiyona hukmdori Bess (u podsho maqomini va Artakserks nomini olgan) Zulqarnaynga qarshi turish befoyda ekanini angelaydi. Iskandar Zulqarnayn Baqtriya qalʼalarini birin-ketin bosib olar ekan, Maroqandda oʻz garnizonini qoldirib, Sirdaryo tomonga - saklar yeriga yuradi. Ammo yoʻlda u mahalliy aholi tomonidan misli koʻrilmagan qarshilikka duch keladi. Ikki tomon kuchlarining oʻzaro toʻqnashuvlarining birida Iskandar Zulqarnayn ogʻir yarador boʻladi. Yunonlar taʼbiri bilan aytganda "daryo boʻyida yashovchi varvarlar" Zulqarnayn garnizoniga katta talofot yetkazadi. Ayni shu vaqtning oʻzida Spitamen boshchiligida soʻgʻdlar ham Iskandar qoʻshinlariga qarshi bosh koʻtaradi. Soʻgʻdlarga baqtriyaliklar ham kelib qoʻshiladi.

Spitamen Iskandarga qarshi keskin kurashdi va uning garnizonini Maroqandda toʻxtatib qoʻydi. Makedoniya garnizoni Sirdaryo boʻyida zudlik bilan qalʼa bunyod etishga kirishadi. Bu qalʼa Olis Aleksandriya nomini olgan. Iskandar Zulqarnayn saklar bilan sulh tuzishga erishadi. Keyin esa asosiy kuchini Spitamenga qarshi tashlaydi. Ammo 329-328-yillar davomida yunon-makedon qoʻshinlari tomonidan Soʻgʻd hududida amalga oshirilgan beshafqat aksiyalar Iskandar Zulqarnayn kutgan natijani bermaydi. Ikki yillik samarasiz va omadsiz harakatlardan keyin u oʻz taktikasini oʻzgartiradi. Ayni xususda Kursiy Ruf shunday yozadi: "Iskandar oʻziga boʻysinishga qarshilik koʻrsatganlarga turli shahar va yerlarni tortiq etdi". Shu usul bilan Iskandar Zulqarnayn mahalliy zodagonlarni oʻziga qaratishga muvaffaq boʻldi va ularning koʻmagida baqtriya va soʻgʻdiylardan tarkib topgan harbiy kontingent tuzdi. 328-yilning kuzida Iskandar bilan Spitamen oʻrtasida hal qiluvchi jang boʻldi. Spitamen bu jangni boy beradi. Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, jangni boy bergan Spitamen oʻz ittifoqchilari tomonidan qatl etilgan.

Hisor togʻlaridagi Xoriyon va Oksariat qalʼalarini oʻziga boʻysindirgan Iskandar Oksariatning qizi Raxshonaga (Roksana, Ravshanak) uylanadi va shu tariqa mahalliy elitaga qarindosh boʻladi. Iskandar oʻz tomoniga oʻtgan soʻgʻdiylardan birini (ayrim maʼlumotlarga koʻra uning ismi Oropiy boʻlgan) Soʻgʻd podshosi etib tayinlaydi. Shu tariqa uning Oʻrta Osiyo ustidan hukmronligi oʻrnatiladi. 327-yilning yozida esa u Hindikush togʻi orqali Hindiston sari yurishini boshlaydi.

SALAVKIYLAR DAVLATI

Spitamening oʻlimi va Iskandarning soʻgʻd-baqtriya hukmdorlari bilan tuzgan sulhi natijasida 327-yilda Oʻrta Osiyo Iskandar Zulqarnayn davlati tasarrufiga oʻtadi. Mahalliy elitalarning harbiy kontingenti Iskandar Zulqarnayn armiyasiga qoʻshiladi. 323-yilda Iskandar Zulqarnaynning oʻlimi haqdagi xabarni eshitgan Soʻgʻd va Baqtriyadagi grek kelgindilari 20 ming kishidan iborat piyoda askar va 3 ming nafar otliqni yigʻib oʻz vatanlariga qaytishga otlandi. Ammo ularni toʻxtatish uchun Iskandarning Safdoshi sarkarda Perdik yetib keladi va qochishga shaylangan askarlarni qurolsizlantirib, jazolaydi. Oʻz vatanlariga qaytishga

shaylangan grek askarlariga xayrixohlik bildirgan Soʻgʻd hukmdori (strapi) oʻz lavozimidan ozod etildi. Uning oʻrniga makedoniyalik Filipp oʻtiradi. Maʼlum muddat u har ikki straplikni - Soʻgʻdiyona va Baqtriyani boshqarib turdi. 315-yildan keyin mahalliy xalq orasidan tayinlangan straplarning hammasi greklar va makedoniyaliklar bilan almashtirildi. Faqat Oksariat (Iskandarning qaynotasi) va Atropat (Perdikning qaynotasi) oʻz lavozimida qoldiriladi. 312-yilda Iskandar sarkardalaridan biri - Salavk Vaviloniyaga ega boʻldi. Tez orada u oʻz yerlarini Sirdaryo va Hind daryolari qadar kengaytirdi. Uning oʻgʻli Antiox I (Salavk bilan Spitamenning qizi Apama nikohidan tugʻilgan) esa Iskandarning Osiyodagi hududlarining katta qismiga egalik qilgan. Oʻrta Osiyo hududida ikkita straplik vujudga keldi. Unga Soʻgʻdiyona, Baqtriya va Margʻiyona kirdi. Xorazm salavkaylarga boʻysunmagan.

Ahmoniyning soʻnggi vakili va Iskandar davrida ham Xorazm oʻz mustaqilligiga ega boʻlgan. Salavk va Antiox Oʻrta Osiyoda oʻz pozitsiyalarini mustahkamlashga alohida eʼtibor qaratgan. Koʻplab qalʼa va shaharlar barpo etilgan va ular asosan greklar bilan toʻla boʻlgan. Tarixiy manbalarga koʻra, Salavk 75 ta shahar qurdirgan. Eng olis shaharlardan biri Yaksart ortida joylashgan Antioxiya shahri boʻlgan. Taxminlarga koʻra, mazkur shahar hozirgi Toshkent viloyati hududida yoki Fargʻona vodiysida joylashgan. Eramizdan avvalgi III asrning 60-yillariga qadar Baqtriyada salavkiylarning zarbxonasi saqlanib qolgan. Bu zarbxonada oltin va kumush tangalar zarb etilgan. Salavkiy hukmdorlaridan biri Antiox II ning davrida (eramizdan avvalgi 261-247-yillar) uning Baqtriyadagi strapi Diodot salavkiy tangalar asosida oʻz tangalarini zarb qilgan. Bu uning salavkiylar hukmronligida qandaydir muxtoriyatga ega boʻlganidan dalolatdir. Baqtriya, Soʻgʻdiyona va Oʻrta Osiyodagi boshqa viloyatlarning iqtisodiy hayoti Salavkiylar davlatining gʻarbiy viloyatlaridagidan ancha farq qilgan.

YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI

Eramizdan avvalgi 256-yilda Parfiya, Baqtriya va Soʻgʻdiyona Salavkiylar davlatidan ajralib chiqdi. Baqtriya strapi Diodot oʻzini shoh deb eʼlon qildi va mintaqada gegemonlik uchun kurash boshladi. Bunga javoban, Arshaxidlar Parfiyada hokimiyatni qoʻlga kiritdi. Soʻgʻdiyona esa Baqtriya hukmronligi ostiga oʻtdi. Eramizdan avvalgi 230-yilda Soʻgʻdiyona strapi Yevtidem Diodotning vorisini taxtdan agʻdardi. Yunon-Baqtriya bilan Parfiya oʻrtasida savdo yoʻllarini nazorat qilish borasida doimiy urushlar boʻlib turgan. Eramizdan avvalgi 209-208-yillarda salavkiy hukmdori Buyuk Antiox III Salavkiylar saltanatini qayta tiklash uchun sharqqa yurish boshlaydi. 207-yilda u Parfiyani magʻlubiyatga uchratib, Yunon-Baqtriyaga qarshi harbiy yurish qiladi. Antiox qoʻshinlari Yevtidem ustidan gʻalaba qozonadi va Yunon-Baqtriya poytaxti Baqtrani qamal qiladi. Qamal ikki yil davom etgan. Nihoyat Yevtidem Antiox bilan tinchlik sulhini tuzishga erishadi. Oʻz navbatida u Antioxga oʻzining barcha jangchi fillarini topshiradi. Yevtidemning oʻgʻli Demetriy esa salavkiylar malikasiga uylanadi. Magnesiya jangida rimliklar tomonidan salavkiylarga qattiq talofot yetkazilishi natijasida Yunon-Baqtriya podsholigi salavkiylarning ittifoqchilari boʻlgan janubiy knyazliklarni oʻziga boʻysundirish imkoniyatiga ega boʻladi. Eramizdan avvalgi 187-yilda otasi Yevtidemning vorisi Demetriy Araxosiyani zabt etadi va Hindiston sari yoʻl oladi.

Demetriy Shimoliy Hindistonda oʻz qoʻshinlari bilan ancha muddat qolib ketadi. Bundan foydalangan uning sarkardalaridan biri - Yevkradit 171-yilda Baqtra hokimiyatini qoʻlga kiritadi.

Yevkraditning podshohligi tarixda "behisob shaharlar podshohligi" degan nom olgan. Xitoy manbalarida yozilishicha, eramizdan avvalgi 165-yilda Yettisoyga (Semirechya) yuechjilarning qadami tekkan. Ular Sirdaryo orqali Amudaryo sohillari tomon yoʻl olgan. Ular Baqtriyani egallashga ham muvaffaq boʻlgan. 155-yilda Yevkradit navbatdagi yurishlarning birida oʻz oʻgʻli tomonidan oʻldiriladi. Xuddi shu davrlarda Yunon-Hind podshohligi tashkil topgan edi. 141-128-yillar Yunon-Baqtriya podshohligining tanazzulga yuz tutish davri boʻldi. Taxminlarga koʻra, yuechshilar Baqtriyani qoʻlga kiritgandan soʻng shoh Geliokl Paropamisada yoki Araxosiyada hokimiyatni saqlab qolgan. Oʻrta Osiyo ikki yuz yil ellinlar dunyosining bir qismi boʻldi. Bu davr Oʻrta Osiyo tarixida jiddiy iz qoldirgan. Soʻgʻd va Baqtriya ellin-makedon harbiy guruhlariga tayangan strapiyalarga aylandi. Hirot, Marv kabi yangidan-yangi shaharlar vujudga keldi. Mintaqada yunon standartlari boʻyicha tangalar zarb etildi. Mintaqaga yunon xudolari panteoni, yunon adabiyoti va teatri kirib keldi. Mahalliy va yunon madaniyatining oʻzaro sintezi sodir boʻldi.

KANGYUY

Xitoy tarixchisi Si Ma-syan oʻz kundaliklarida "yuechjilarnikiga oʻxshash anʼana va urf odatlarga" ega boʻlgan koʻchmanchi Kangyuy yoki Kandzyuy va Kangxa davlatlari haqida maʼlumot beradi. Antik davr tarixchilari asarlarida Kangxa davlati tilga olinmagan, ammo Avesto va Maxabxarata kitoblarida saklar va toxarlar bilan bir qatorda kankilar toʻgʻrisida ham atroflicha maʼlumot berilgan. Ancha keyingi Xitoy xronikalarida Amudaryo shimolida joylashgan Buxoro, Shahrisabz, Kattaqoʻrgʻon atroflari, Toshkent vohasi hamda Xorazmning shimoliy qismidan iborat barcha davlatlar Kangyuy davlatiga qaram boʻlganligi aytiladi. Xitoy manbaalarida keltirilishicha Kangyuy davlati rahbarlari "Chao-vu" deb nomlanganlar. Umuman "djabgu" boʻlishi ham ehtimoldan holi emas, chunki xitoy transkriptlarida bu aynan ana shunday talaffuz qilinadi. Eramizdan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi - eramizdagi I asrlarida Kangyuy davlatining qudrati oʻz choʻqqisiga chiqdi. Davlatning janubiy oʻlkalarida yuechjeylar, shimolida esa xunlar taʼsiri kuchli boʻlgan Kangyuy davlatining qisqa muddatli tanglik davri Baktriyada yuechjeylar qirolligining kuchsizlanishi bilan nihoyasiga yetdi. Eramizda avvalgi II-I asrlarda Kangyuy davlatida oʻz tangalarini zarb etish hamda pul almashinuvini yoʻlga qoʻyishga boʻlgan urinishlar kuzatildi. Ushbu jarayonda Grek-Baqtriya hukmronligi vaqtida amal qilgan tangalardan nusxa sifatida foydalanilgan. Kangyuy moddiy madaniy tarraqqiyot darajasi Xorazm, xususan shaharning oʻng qirgʻogʻida joylashgan Janbas-qalʼa hududida amalga oshirilgan qazuv ishlari natijalarida namoyon boʻladi. 200x170 hajmdagi qalʼa balandligi 10-11 metrlik xom gʻishtdan qilingan devor bilan oʻralgan. Darvozadan qalʼa markazi sari keng koʻcha yotqazilgan. Koʻcha oxirida qurbonlik keltirish uchun aylana shaklidagi metal supaga ega boʻlgan muqaddas olov saqlash binosi qoldiqlari qazib ochilgan. Kangyuy davrida odamlar turli dinlarga mansub boʻlgan: zardoʻshiylik, Anaxita oqimi, ot siymosida namoyon boʻlgan Mitra oqimi.

Ushbu davrda Kangyuy madaniyati bilan bogʻliq harbiy texnika sohasida erishilgan eng muhim muvaffaqiyatlardan biri bu keyinchalik keng tarqalgan taktik uslublar boʻldi: masalan, janglarda aslahalar bilan himoyalangan otlar va sovut kiygan chavandozlar safining jipslashtirilgan holda tuzilishi. Chavandozlar kamon, nayza va qilich bilan qurollanganlar. Kangyuyning Kushon imperiyasi tarkibida boʻlganligi hali ham nomaʼlum. Xitoy manbaalariga asosan Kangyuy eramiz

boshida ham o'z mustaqilligini saqlab qolgan hamda yansay (aorslar-alanlar) va boshqa qabilalar ustidan hukmronlik qilgan.

KUSHONLAR DAVLATI

Yuechjeylarning eramizdan avvalgi II asr o'rtalarida Grek-Baqtriya davlatiga bostirib kirishi ushbu davlatni tamomila tugatilishiga olib keldi. Yuechjeylarning dastlabki mulklari shimoliy Baqtriya hududlarida bo'ldi (zamonaviy O'zbekistonning janubiy hududlari va Tojikiston). Kushon davlati eramizning I asri birinchi yarmida yuechjeylar davlati amirliklaridan biri Kushonning yuksalishi oqibatida yuzaga keldi. Kushon xitoychada Guyshuan deb talaffuz qilinib, yuechjey qabilalaridan birining nomi bo'lish ehtimoli bor. Davlat asoschisi yabgu (amir) bo'lgan. Keyinchalik podshoh Kudjula Kadfiz hukmronligi ostida kushonlar hozirgi Afg'oniston va Pokistonning katta qismini bosib oldilar. Uning merosxo'ri Vime Tok hukmronligi davrida kushon mulklariga Hindistonning katta bir qismi qo'shildi. Kushon davlatining gullab-yashnashi Kanishka hukmronligi davriga to'g'ri keldi (taxminan eramizning 78-123-yillari). O'sha davrda poytaxt Baqtriyadan Peshovorga ko'chirildi, mamlakat sarhadlari esa Hindiston va Xo'tongacha bo'lgan o'lkalarni qamrab oldi. Markaziy Osiyoda Kushon davlatining chegaralari hozirgi O'zbekiston janubidagi Hisor tog' tizmalari cho'qqilaridan o'tgan. O'sha yerdagi baland tog' daralarida (Darband) mustahkam chegara inshootlari qad ko'tardi. O'sha davrlarda davlat sarhadlarida yangidan-yangi shaharlar qad ko'tardi, Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo munosabatlari o'rnatildi. Pompeyda olib borilgan qazish ishlari mobaynida kushon tangalari hamda kushon ustasi tomonidan suyakdan yasalgan figuralar topildi. Kushon davrida me'morchilik yuksak rivojlandi. Ayniqsa saroylar va ibodatxonalar qurilishiga katta e'tibor qaratildi. Kushon hukmdorlarining Xolchayondagi saroyida va eski Termiz va Dalvarzindagi budda ibodatxonalarida yuqori badiiy did bilan ishlangan devor chizgilari va haykaltaroshlik namunalari yaxshi saqlanib qolgan.

Xolchayon, Dalvarzin va Ayritomda olib borilgan qazish ishlari davomida kushon ustalarining yuksak mahoratidan dalolat beruvchi bronza idishlar, muhtasham shag'amsupalar, ko'zgulalar hamda zargarlik mahsulotlari topilgan. Dehqonchilik imperiya iqtisodiyotining tayanchi bo'lgan. Yer hosildorligini oshirish maqsadida turli o'g'itlardan keng foydalanilgan. Tog' oldi hududlari va cho'llar chorvachilik maqsadlarida foydalanilgan.

Termizda olib borilgan qazuv ishlari davomida oramiy tili asosida yozilgan xatlar topilgan. Kushon kursiv xati o'zining o'tkir burchakli, kvadrat va aylana shaklidagi harflari bilan ajralib turar hamda o'sha davrlarda juda keng tarqalgan edi. Kanishka davrida Kushon davlatiga buddizm kirib keladi va tez orada davlat diniga aylanadi. Ammo shu bilan birga zardo'shtiylik va mahalliy O'rta Osiyo, Hindiston, Eron, Yunoniston va Misr xalqlari dinlari ham o'z kuchini yo'qotmaydi. Kushon davlati eramizning III asri birinchi yarmining oxirida barham topdi. Baktriya va Toxariston maxsus mulk huquqi ostida Sosoniylar imperiyasi tarkibiga qo'shildi. Ushbu imperiya sosoniy podshohlar xonadoni a'zolari tomonidan boshqarilib, ular kushonshoh tituligi egalik qilgan.

EFTALIYLAR DAVLATI

Eftaliylar davlati parchalanib ketgan Kushon davlati hududining bir qismida tashkil topgan.

Aholisining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan, qolgani esa ko'chmanchi chorvachilik hayot tarzini davom ettirgan. Eftaliylar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar yozma manbalarda 457-yildan buyon, ya'ni ularning podshosi Vaxshunvar Chag'aniyon, Toxariston va Badaxshonni o'ziga bo'ysindirganidan so'ng qayd etila boshlagan. Turli manbalarda Eron sosoniylar davlati bilan eftaliylar o'rtasidagi bo'lib o'tgan jangu jadallarning yorqin, biroq bir-biriga zid manzarasi tasvirlangan. Sosoniylar podshosi Peroz eftaliylar davlatining tobora kengayishidan xavfsirab, ularga qarshi harbiy harakatlar boshlab yuboradi, biroq asirga tushib qoladi. Sosoniylar podshosi yordam so'rab Vizantiyaga murojaat qiladi va ko'chmanchilar huruji bu davlat uchun ham tahdid ekanini uqtiradi. Vizantiya hukmdori tovon to'lab, Perozni tutqinlikdan xolos etadi.

Peroz eftaliylarga Tolqon chegara shahrini topshirishni va'da qiladi, biroq o'z va'dasini ustidan chiqmay, ikkinchi marta harbiy yurish uyushtiradi. Peroz bu safar ham mag'lubiyatga uchraydi va eftaliylarga o'zining go'dak o'g'lini tutqun etib qoldiradi hamda ikki yil davomida katta tovon to'lab turadi. 484-yili Peroz o'zining uchinchi harbiy yurishini amalga oshiradi. Bu gal u o'z qo'shini bilan birga eftaliylar tayyorlagan maxsus bo'ri o'rasiga tushib qolib halok bo'ladi. Eftaliylar Peroz qo'shinini batamom tor-mor qilgach, Eron xalqi zimmasiga katta miqdorda o'lpon to'lash majburiyatini yuklatadilar hamda Marv shahrini ishg'ol etadilar. So'ngra ular Kobul vodiysi va Panjobni egallashadi, Qoroshor, Kuchu, Qashqar va Xotanni istilo qilishadi. Shu tariqa ular Markaziy Osiyo, sharqiy Eron, Hindistonning shimoliy qismi va Sharqiy Turkistonni o'z ichiga olgan yagona qudratli davlat barpo etadilar. O'z bolaligini eftaliylar qo'l ostida tutqunlikda o'tkazgan Peroz o'g'li Kavade zamonida Eron eftaliylarga o'lpon to'lashda davom etgan. Vizantiyalik tarixchi Prokopiyaning qayd etishicha, eftaliylar "yagona podsho tomonidan boshqarilgan va o'zaro hamda qo'shni davlatlar bilan bo'lgan munosabatlarda vizantiyaliklar va forslardan qolishmagan holda adolat mezoniga amal qilishgan". "Ipak yo'li" egalari bo'lgan eftaliylar xalqaro savdoda faol ishtirok etishgan. Ular Eron, Vizantiya, Hindiston va Xitoy bilan savdo-sotiq qilishgan. Eftaliylarning Peroz askarlariga qarshi urushiga oid epik rivoyatlar "Shohnoma" asarida keltirilgan. Asarning eftaliylar podshohi Gatferd haqidagi hikoyatida eftaliylarning turkiy xalqlarga qarshi kurashi aks etgan. Akademik V.Bartoldning taxmin qilishicha, Gatferd timsolida Vizantiya manbalarida keltirilgan tarixiy shaxs - Katulfni ko'rish mumkin. Katulf podsho tomonidan o'z xotiniga yetkazilgan haqorat uchun intiqom bahonasida Eronga qochgan va o'z mamlakatini turkiylarga sotgan. Eftaliylar ko'plab xalqlarni siyosiy jihatdan birlashtirishgan va bu hol mazkur davlat tarkibida ko'pgina diniy yo'nalishlar va mashablar mavjud bo'lganini izohlaydi. Zoroastrizm mahalliy mashablar - Anaita, Siyavusha, Mitra bilan o'zaro birlashib ketgan. Buddizm ham keng tarqalgan.

TURK XOQONLIGI

VI asr o'rtalarida Oltoydagi turkiy qabilalar qo'shni qabilalar bilan o'zaro birlashib "mo'g'il davrigagacha bo'lgan eng qudratli ko'chmanchilar davlati" - Turk xoqonligiga asos solgan. Ikki aka-uka, To'min va Istemi ulkan davlatni boshqarishgan. To'min hoqonlikning sharqiy qismidagi o'ziga qaram yerlarni kengaytirgan bir paytda, uning ukasi Istemi davlatning g'arbiy qismidagi Yettisuv va Sharqiy Turkistonning tutashgan hududlari qabilalarini o'zaro birlashtirgan. Davlatning G'arb tomon kengayishi uning eftaliylar davlati yerlari bilan to'qnashuviga sabab bo'lgan. 563-567-yillarda turkiylar eftaliylar davlatini tor-mor qilishgan va

Amudaryo bo'yida Eron sasoniylari bilan to'qnash kelishgan. Turkiylar va Eron eftaliylar qiyofasida umumiy dushmanga qarshi kurashgan paytda ular o'zaro do'stona munosabatda bo'lganlar va hatto, shahanshoh Xusrov Anushervan turkiy malikaga uylangan. Turkiylar eftaliylarni tor-mor keltirgandan so'ng esa, ular bilan Eron o'rtasida o'zaro mojaro yuzaga kelgan. Turkiylarning muhim savdo yo'llariga egalik qilishga bo'lgan intilishlari Eron bilan munosabatlarning keskinlashuviga olib kelgan. Istemining savdo masalalari bo'yicha elchilarining Eronga tashrifi muvaffaqiyatsiz tugagan, ikkinchi va so'nggi elchilik a'zolari esa zaharlanganlar. Shundan so'ng turkiylar Vizantiya bilan ittifoqchilikda Eronga qarshi urush boshlashga qaror qilishadi. 568-569-yillarda Maniakh boshchiligidagi Istanbulga birinchi elchilik tashrifi muvaffaqiyatli yakunlanadi.

Vizantiya bilan Eron o'rtasidagi o'zaro urush, ularning xoqonlikka nisbatan e'tiborini chalg'itgan holda, turkiylarning yarimko'chmanchi davlatining shiddatli darajada yuksalishiga imkoniyat yaratgan. Turkiylar ichki ixtiloflar oqibatida zaiflashgan Xitoyga bir necha marta muvaffaqiyatli yurishni amalga oshirib, shoyi matolaridan iborat katta yillik o'lpon olishga erishgan. 588-yili turkiylar hukmdori Qora Churin Vizantiya va hazarlar bilan ittifoqchilikda Eronga hujum qiladi, biroq mag'lubiyatga uchraydi va sasoniylar sarkardasi Bahrom Chubin tomonidan o'ldiriladi. Bu mag'lubiyat hoqonlikning tanazzulga yuz tutishi va VI asrning 80-yillarida sharqiy va g'arbiy o'lkalarga ajralib ketishiga sabab bo'ladi. VII asrning birinchi yarmida g'arbiy xoqonlik hayotida yuksalish kuzatiladi. Uning chegaralari Inda sohillarigacha yetgan. Xitoy va Eron bilan savdo munosabatlari keng rivojlangan. Savdo karvonlari Marv-Chorjo'y-Buxoro-Samarqand-Choch-Talas-Suyab yo'nalishi bo'ylab Sharqiy Turkiston vohalarigacha cho'zilgan. Butun yo'l davomida karvonlar ularning jadal safarlariga imkon bergan sug'd mulkiy hududlariga duch kelishgan. Taxminan, 630-yili turkiylarning yaqin qadargacha ittifoqchilari bo'lgan xitoylar ularni qaqshatqich mag'lubiyatga uchratadi. VI asr oxirida g'arbdan yangi qudratli dushman - Markaziy Osiyoni o'z tasarrufiga bo'sindirgan arablar bosib kela boshladi. G'arb turkiy xoqonligi Yettisuv o'lkasi turgeshlar tasarrufiga o'tgandan so'ng 704-yili batamom parchalanib ketgan.

SO'G'D

IV-VIII asrlarda so'g'dlar Uzoq Sharq, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalari savdosida asosiy vositachi bo'lganlar va butun Buyuk ipak yo'li bo'ylab muntazam xalqaro karvon savdosini tashkil etganlar. So'g'd bu davrlarda bekliklar va erkin shaharlar hamdo'stligidan iborat bo'lgan va ular orasida Samarqand, Maymurg', Kesh, Naxshab, Ishtixon, Kushaniya, Buxoro, Amul va Andxoy ajralib turgan. Xitoygacha bo'lgan butun yo'l bo'ylab, janubdagi Xotan va Sharqiy Turkiston orqali Lob Nor va Yettisuv shimoligacha so'g'd mulkiy hududlari tarkib topgan va ular XII asrgacha mavjud bo'lgan. So'g'dlarning Turkiston va Xitoydagi eng yirik mulklari ularning alohida jamoalar bo'lib yashagan Kucha, Chanan, Lanchjou, Dunxuan, Loyan kabi shaharlarda mavjud bo'lgan. 4-asrda Dunxuanning o'zida so'g'd jamoasi taxminan 1000 kishidan iborat bo'lgan. Samarqandning sharqiy darvozalari "Xitoy" nomi bilan ataladi. Xalqaro savdo aloqalari Samarqand, Paykend va boshqa yirik shaharlardagi boy so'g'd uylari tomonidan nazorat qilinar edi. Ular o'z vositachilari orqali kreditlar berishgan, savdo kelishuvlarini boshqarishgan.

Tan sulolasi tarixida qayd etilishicha, Kan hukmdorligida "yangi tug'ilgan o'g'il chaqaloq shirinso'z bo'lishi hamda pulni mahkam ushlashi uchun uning tiliga tosh asal, kaftlariga esa yelim surtilgan...Yigirma yoshga to'lgan erkak qo'shni o'lkalarga jo'nab ketgan va qaysi joyda manfaat ko'rsa, o'sha yerga borgan". Olis safarlar, Xitoy, Hindiston, Eron, Turkiya xalq hunarmandchiligi va an'analari bilan tanishuv orqali G'arb va Sharq yutuqlarini o'zida mujassam etgan noyob va ochiq so'g'd madaniyati shakllangan. So'g'd hunarmandchiligi markazi va savdo yo'llari - Samarqand, Panjikent, Paykent, Buxoro va Varaxshi xavfsizligini ta'minlash ehtiyoji kuchli davlatlar bilan ittifoq tuzishga qaratilgan siyosiy yo'nalishni belgilab bergan. VI asrda So'g'd Eftaliylar davlati, keyinchalik Turk xoqonligi tarkibiga kirgan, 630-yildan buyon esa Xitoyning Tan sulolasi hukmdorligini tan olgan. Xoqonlik yuksalishi davrida so'g'dlar turkiylarning Xitoydan o'lpon sifatida olgan shoyi bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo'lishgan. VI asrning 70-yillarida tyurkiy hukmdorlar buyurig'i bilan so'g'd savdogari Maniax savdo kafolatlari yuzasidan muzokaralarni avvaliga Eron Shahanshoi, so'ngra Vizantiya imperatori bilan olib borgan.

O'rta asrlarda so'g'd tili Buyuk ipak yo'lidagi asosiy muloqot tiliga aylangan. Buddistlar, nasroniylar, manixeylar o'zlarining diniy matnlarini so'g'd tiliga tarjima qilishgan. Bunda ular o'zlarining yozma an'alaridan foydalanishgan: buddistlardan hind alifbosi, manixeylardan arameys bosmasi, nasroniy-suriyaliklardan dastlabki umumiy maktubot, nestoriyan va yakovitlardan diniy e'tiqod alifbolarini o'zlashtirishgan. Biroq ular aramey bosmasiga asoslangan va keyinchalik uyg'urlar tomonidan foydalanilgan ilk so'g'd yozuvi o'rnini egallay olmadi. Mazkur yozuv namunalari bilan Dunxuandagi mulkiy hududlardan yo'llangan "qo'hna maktublar" va Zarafshon vodiysidagi Mug tog'ida topilgan hujjatlar yordamida tanishish mumkin. VIII asr boshida So'g'd Qutayba ibn Muslimning musulmon qo'shinidan mag'lubiyatga uchraydi va halifalikka bo'singan holda islom dinining jug'rofiy-siyosiy makonida qudratli savdo-hunarmandchilik markazi bo'lib qoladi.

ARAB ISTILOSII

VII asrda murosasiz qabilalararo urushlardan so'ng kichik Madina shahri arab qabilalarning siyosiy birlashuv markaziga aylandi. O'z kuchlarini qo'shni vohalar va shaharlar tomon yo'naltirgan ko'chmanchi qabilalar sardorlari Madina atrofida tezkorlik bilan birlashadilar. Arablar birin-ketin g'alaba qozonib tezda Suriya, Falastin, Eronni zabt etadilar, 651-yili esa ular Marvga yetib kelib, uni jangsiz ishg'ol etadilar. Arablarning g'alabalari ularning asl kuchidan ko'ra ko'proq bosib olingan mamlakatlarning zaifligi va parokandaligi bilan izohlanadi. 674-yili xalif Muaviya tomonidan yo'llangan Ubaydulloh ibn Ziyod chamasi birinchi bo'lib Amudaryoni kechib o'tgan. U Poykandni qurshovga olib, ishg'ol etadi. Buxoro qirolichasi ustidan g'alaba qozonib, u shahardan katta o'lja -qurol-yarog', kiyim-kechak, oltin, kumush va ko'plab asirlar olib ketadi. So'g'd hukmdorlari Kesha i Nesefa buxoroliklarga yordam berishga qaror qilishadi, ammo, Narshohining hikoya qilishicha, arab qo'shini so'g'dlarni dahshatga solgani bois, ular jang maydonini tark etishadi. Arab tarixchisi Belazurining so'zlariga qaraganda, Buxoro asirlari qullarga aylantirilgan. Erksevar buoroliklar o'z taqdirlariga tan berishni istamadilar. Ular Said ibn Usmon saroyiga bostirib kirib, uni o'ldirishadi. 704-yili Xurosonning noibi etib, Qutayba ibn Muslim tayinlanadi. U Movarounnahr, ya'ni Amudaryoning o'ng sohilidagi o'lkalarni to'liq bosib olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. 705-706-yillarda u Balx, Poykandni ishg'ol etadi,

ammo Bog'dis Nizoq Tarxun boshchiligidagi so'g'dlar va turkiylarning keskin qarshiligiga duch keladi va chekinishga majbur bo'ladi.

709-yili Qutayba burilish yasashga erishadi. Tarxun tor-mor keltirilib, qatl qilinadi, Buxoro katta qiyinchiliklarsiz ishg'ol etiladi. Ko'p o'tmay Qutayba Shuman, Nasaf va Keshni egallab oladi. Arablarning So'g'd yuragi Samarqandga hujum qilishi uchun barcha imkoniyatlar muhayyo tuyulgan edi, biroq Qutayba salkam ikki yilgacha Xorazmdagi yumushlar bilan ovora bo'ladi. 711-yili Qutayba xorazmshohga taxtni qayta egallashda ko'maklashadi va Xorazm Xalifatga tobe bo'lib qoladi. 712-yili Qutayba Samarqandga yurish qiladi. Samarqand hokimi Gurek unga keskin qarshilik ko'rsatadi. Arab qo'shini qamalga mo'ljallangan otish va devor buzish qurollaridan foydalanadi. Murosasiz jangdan so'ng Qutayba nihoyat shaharni ishg'or etadi va Samarqand aholisiga og'ir o'lpon to'lash majburiyatini yuklatadi. Qutayba o'z harbiy yurishlarini davom ettirib, Xo'jand va Farg'onani zabt etadi, Shoshga qarshi urushadi, biroq uning bu hamlasi Shosh hukmdori turkiy Bahodir tudun tomonidan daf etiladi. 715-yili halifa Validning o'limidan voqif bo'lgan Qutayba qo'zg'alon ko'taradi, ammo Farg'onada o'z yaqinlaridan biri tomonidan o'ldiriladi.

SOMONIYLAR DAVLATI

IX asrning 20-yillarida Movarounnahrda Asad ibn Somon va uning o'g'illari xalifatga sodiqliklari bilan namoyon bo'lgan. ko'targan Rafi ibn Lays qo'zg'alonini bostirishga erishdilar. Ularning bobosi Somon Farg'onaning dehqon oilasidan chiqqan (uning Bal yoki Termez viloyatlaridanligi haqida farazlar ham mavjud). Xalif al-Ma'munga sadoqatli xizmatlari evaziga Xuroson noibi Xasan ibn Abbad (819-821 yy.) Asad ibn Somon o'g'illarini muhim viloyatlar va shaharlarning hokimi etib tayinlaydi. Nuhga - Samarqand, Ahmadga - Farg'ona, Yahyoga - Shosh va Ustrushon, Ilyosga - Xirotda tuhfa etiladi. Nuh oila sardori bo'lgan, uning o'limidan so'ng bu vakolat - Ahmad ibn Asadga o'tgan. Ahmad davrida somoniylar xalifat va toxiyrlardan muxtoriyat olishga erishadilar. Ahmad ibn Asad oilasi somoniylarning barcha hududlarini o'ziga bo'sundirib, Movarounnahrda ulkan davlat barpo etadi. Ahmad siyosati Samarqandda hukmronlik qilgan uning o'g'li Nasr tomonidan davom ettiriladi. Somoniylarning ta'sirini inobatga olib, xalif Mutadim 875-yili poytaxti Samarqand bo'lgan Movarounnahr boshqaruvini butunlay Nasr ibn Ahmad (875-892 yy.) ixtiyoriga topshiradi. 874-yildan buyon Boxoroni boshqargan Nasr ukasi Ismoil (892-907 yy.)

892-yili Movarounnahr amiri bo'ladi. 900-yili Ismoil Somoni Bal yonida bo'lgan jangda Saffarid Amr ibn Leysni mag'lubiyatga uchratadi. Natijada Xuroson, keyinchalik esa Siston somoniylar davlati tarkibiga qo'shib olinadi. Xuroson 999-yilga qadar Nishapurdagi somoniy noibi tomonidan boshqarilgan. Ahmad ibn Ismoil (907-914 yy.) o'z otasi Ismoil davlatiga vorislik qiladi. X asrning 30-40-yillarida somoniy Nasr II (914-943) hukmronligi davrida davlatda karmatlar ta'limoti keng tarqaladi va unga qarshi uning o'g'li Nuh I (943-954) kurash olib boradi. Somoniylar davrida Movarounnahrda hunarmandchilik, qurilish va madaniyat gullab-yashnaydi. Karvon savdosi muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Buyuk ipak yo'li qayta jonlanib, uning yangi shahobchalari paydo bo'ladi. Shaharlar yangidan quriladi. To'quvchilik, kulolchilik, mischilik, duradgorchilikning yangi markazlari yuzaga keladi. Shaharlar ichida karvonsaroylar, masjidlar va madrasalar bunyod etiladi. O'sha davrda buyuk qomusshunos

olimlar al-Xorazmiy, al-Fargʻoniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Sharshohiy va boshqalar yashab ijod etgan. 945-yildan buyon Xurosonda betinim notinchliklar boshlanadi. Somoniylar Abdul-Malik ibn Nux (954-961) va uning ukasi Mansur (961-976), oʻgʻli Mansur - Nux II (976-977), Nux II oʻgʻli - Abdul-Malik II (997-999) zamonida davlat asta-sekin zaiflasha boshlaydi. 999-yili Somoniylar Movarounnahrni turk hukmdorlari - qoraxoniylarga boy beradilar va shu tariqa Somoniylar davlati tugatildi. Somoniylarning soʻnggi hukmdori Abdul-Malik II ning ukasi al-Muntasir 1005-yili oʻldirilgan.

QORAXONIYLAR DAVLATI

X asr oxirida Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida "podshoh yagʻma" yoki "elikxon" boshchiligidagi qoraxoniylar davlati tashkil topadi. Bu davlat tarkibiga turli turkiy millatlar - qorluqlar, chigillar, argʻular, yagʻmalar va boshqa xalqlar kirgan boʻlib, ular 960-yilga qadar islom dinini qabul qilganlar. 992-yili elikxon Bugʻra boshchiligidagi qoraxoniylar qoʻshini Movarounnahr hududiga bostirib kiradi. Qoraxoniylar gʻalabasiga Bugʻraxon bilan Xurosonning somoniy hokimi Abuali Simjur oʻrtasida tuzilgan hufyona ittifoq hamda lashkarboshi Foiqning sotqinligi sabab boʻlgan. Natijada qoraxoniylar Buxoroni jangsiz ishgʻol etadilar, amir Nuh esa Chorjoʻyga qochishga majbur boʻladi. Ammo Bugʻraxon kasallanib, oʻz vatani Koshgʻarga ketayotganda vafot etadi. Qoraxoniylar Buxorodan katta oʻlja bilan qaytadilar.

Qoraxoniylarning yangi yoʻlboshchisi boʻlgan elikxon Nasr Buxoroga qayta hujum uyushtiradi. 995-996-yillarda Nuh II Sabuh Tegin madadi bilan qoraxoniylar hujumini daf etadi. 999-yili qoraxoniylar yana Buxoroni yana ishgʻol etib, amir Abdul Malik II va podshoh oilasini asirga oladilar.

Bu hol Movarounnahrda hokimiyat qoraxoniylar foydasiga uzil-kesil hal boʻlishiga olib keladi. Qoraxoniylar davlati Koshgʻardan Amudaryogacha choʻzilgan Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Shosh, Fargʻona va qadimgi Soʻgʻd yerlarini oʻz ichiga olgan. 1005-yilgacha somoniylarning soʻnggi vakili al-Muntasir qoraxoniylar bilan muvaffaqiyatli kurashgan, biroq raqibning koʻpsonli qoʻshini pirovard gʻalabani taʼminlagan. Bogʻdod halifi fatvosi bilan elikxon Nasr ibn Ali Movarounnahrda oʻz hukmronligini oʻrnatdi. Movarounnahrni zabt etgach qoraxoniylar dehqonlar tabaqasini yakson etdilar va ularning yerlari va suvlarini davlat tasarrufiga topshirganlar. Elikxon Nasr 1012-yili vafot etgach, uning davlatiga ukasi Ali Tegin vorislik qiladi. Qoraxoniylar Amudaryo vodiysi yerlari uchun gʻaznaviylar davlatiga qarshi muntazam urushlar olib borishadi, XI asr oxirida esa saljuqlarning kuchaygan davlatiga tobe boʻlib qolishadi. Elikxon poytaxti dastlab Uzgenda joylashgan, soʻngra Samarqandga koʻchirilgan. Buoro ham Samarqandga tobe boʻlgan. Qoraxoniylar Samarqandda, Buxoroda, Binkentda koʻplab binokorlik ishlarini amalga oshirishgan, saroylar, masjidlar va madrasalar bunyod etishgan, musulmon dini nufuzini saqlash va mustahkamlashga hissa qoʻshishgan.

XORAZMSHOHLAR DAVLATI

XI asr va XII asrning birinchi yarmida Xorazm saljuqlar davlati (gʻaznaviylar davlati xarobalarida XI asrda tashkil topgan) tarkibiga kirgan. Xorazmning XI asrdagi yuksalishi turkiylar sulolasiga mansub xorazmshohlar siyosati bilan uzviy bogʻliq. Mazkur sulolaga saljuq amirining tashtdori Anushtegin asos solgan. Sulton hammomchilari mahkamasining sardori boʻlgan Anushtegin Malikshoh (1072-1092 yy.) saroyida yuksak martabaga erishgan. U rahbarlik qilgan mahkama

zimmasiga Xorazmni boshqarish ham yuklangan. Qayta tiklangan xoramshoh mansabiga sazovor bo'lgan Anushtegin nabirasi Otsiz Xorazm mustaqilligi yo'lida astoydil harakat qilgan. Xorazmshoh Otsiz (1127-1156 yy.) saljuq sultoni Sanjarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borgan. U mug'ombir diplomat va qat'iy sarkarda bo'lib, mustaqil tashqi siyosat yuritadi. Chunonchi, u o'z hukmdori Sanjarning ruxsatisiz qipchoqlar va turkmanlarga qarshi urush boshlaydi.

XII asrning boshida O'rta Osiyoni sharq tomondan yangi istilochilar - qoraxitoylar bosib oladilar. Sulton Sanjar o'zining yaqin qarindoshi bo'lgan samarqandlik qoraxoniylar xoni Mahmudga yordamga keladi. Qoraxitoylarga qarshi Samarqand yaqinida bo'lib o'tgan jang Sanjarning to'la mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Xorazmshoh Otsiz Sanjarning mag'lubiyatidan ustalik bilan foydalanib 1141-yili Marvni ishg'ol etadi, 1142-yili esa Nishopurga yaqinlashadi. 1156-yili Otsiz vafot etadi va uning o'g'li Elarlon (1156-1172 yy.) xorazmiylar davlatini mustahkamlashni davom ettirib, Dixistonni tevarak-atrofdagi yerlarga qo'shib oladi. Uning o'g'li Tekesh (1172-1200 yy.) 1187-yili Nishopurni, 1192-yili esa Marvni bosib oladi. 1194-yili g'arbiy saljuqlar sultonini qaqshatqich mag'lubiyatga uchratib, Eronning butun sharqiy qismini egallab oladi. 1195-yili Tekesh abbosiy xalifa qo'shinini tor-mor qilib, Iroqqa bostirib kiradi. O'z mamlakati hududlarini ikki karra kengaytirgan va qudratli davlat barpo etgan xorazmshoh Tekeshni Xorazmning eng iste'dodli hukmdori deb e'tirof etish mumkin. Uning siyosati kamchiliklaridan biri qipchoq harbiy aristokratiyasiga ko'rsatilgan homiylik bo'lgan. Qipchoqlar Tekesh rafiqasi xayriohligidan foydalanib davlat ishlariga ko'proq ta'sir ko'rsatishga intilgan. Turkiy "qo'mondonlar"ning davlat ishlariga o'zboshimcha aralashuvi keyinchalik Tekesh o'g'li Muhammad zamonida Xorazm davlatining parchalanishiga sabab bo'lgan.

CHINGIZXONNING O'RTA OSIYO ISTILOS

1215-yili Chingizxon shimoliy Xitoyda erishilgan g'alabalarni mustahkamlab, o'z etiborini g'arb tomon qaratadi. 1219-yili u Jebenoyonga Sharqiy Turkiston va Yettisuvni ishg'ol etishni buyuradi. Chingizxon armiyasi kuchluq davlatini tor-mor keltirib Movarounnahrqa bostirib kiradi. Samarqandni mustahkamlash uchun katta xiroj yig'iladi, biroq bu mablag'lar isrof qilinadi, shahar devorlari esa mustahkamlanmaydi. 1219-yili Chingizxon katta va mustahkam qal'a bo'lgan O'trornga yurish qiladi. O'z kuchlarini ikkiga ajratib, ulardan birini O'tror qurshovi uchun qoldiradi, qolganiga o'g'li Juchini boshliq etib Signak, Uzgen, Jenda va so'ngra Urganchni zabt etish maqsadida safarbar etadi. 5 ming kishilik askar Sirdaryo bo'lab Benaket va Jo'jand shaharlariga yuborilgan. Chingizxonning o'zi esa asosiy kuchlar bilan suvsiz dashtlar bo'ylab qisqa yo'l orqali Buxoro tomon yo'l oladi. 1220-yilning fevralida Buxoro ishg'ol etiladi. Chingizxon shaharni o'z askarlariga talon-taroj qilish uchun topshiradi.

Buxoroning ayanchli taqdiri haqidagi mash'um xabar tez orada butun Movarounnahrqa yoyiladi. Aholi qo'rquv va tahlikaga tushadi. Xorazmshoh Muhammad qo'rqqoqlik bilan qochishga hozirlik ko'radi. Samarqand himoyachilariga boshchilik qilgan turk To'g'ayxon Chingizxon xizmatiga o'tishga umid qilib shaharni topshiradi. Mo'g'illar shaharga bostirib kirib qirg'inbarot uyushtiradilar. Samarqand aholisining faqat to'rtidan bir qismi omon qoladi. 1220-yilning aprelida mo'g'illar Xo'jandni ishg'ol etadilar. Sirdaryo yaqinida ular Benakentni zabt etadilar. Xo'jand hukmdori Temur Malik mo'g'illarga qarshi mardonavor kurash olib boradi. U o'zining

kam sonli askarlari bilan yo'l-yo'lakay jang qilib Urganchga yetib keladi. 1220-yilning yoziga qadar Movarounnahrning sharqiy va markaziy qismi mo'g'illar tomonidan bosib olinadi. Xorazmshoh qochadi. U Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'idagi orolda vafot etadi. Urganchda Temur Malik qisqa vaqt davomida xalq lashkarlariga boshchilik qiladi. U uchiga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib boradi. 1220-yilning kuzida Chingizon hamla bilan Termezni ishg'ol tadi. 1221-yilning qishida Urgench qamali boshlanadi. Shahar aholisi dushmanga qahramonlarcha qarshilik ko'rsatadi. Urgench taslim bo'lishidan avval Balx va Marv shaharlari zabt etiladi. 1221-yilning yoziga qadar butun Markaziy Osiyo hududi mo'g'illar tasarrufiga o'tadi. Chingizxon vafotidan so'ng mo'g'il imperiyasining merosxo'rlar o'rtasidagi taqsimoti natijasida Movarounnahr Chingizxon o'g'li Chig'atoy ulusi deb e'tirof etiladi. Chig'atoy saroyi uchun o'lpon yig'ish vazifasi mahalliy savdogar Mahmud Yalvochga ishonib topshiriladi.

AMIR TEMUR DAVLATI

XIV asr o'rtalarida barlos beki o'g'li Temur Tarag'ay buyuk siyosiy arbob sifatida tarix sahnasida namoyon bo'ladi. Nufuzli turk amiri Qazag'on nabirasi - Samarqand hukmdori Xusayn bilan ittifoqchilikda Temur Movarounnahrni birlashtirish va uni mo'g'il bosqinidan ozod qilish uchun kurash boshlaydi. Biroq ko'p o'tmay ular o'rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. 1370-yili Amir Temur Xusayn qo'shinini tor-mor qilgach, Movarounnahr amiri deb e'lon qilinadi.

1372-1388-yillar davomida Amir Temur Xorazmga besh marta yurish qiladi va uning o'ziga to'la tobe bo'lishiga erishadi. Shundan so'ng u Eron, Iroq, Kavkaz, Suriya, turkiyaga harbiy yurishlarni boshlaydi. Natijada ulkan imperiya barpo etiladi. Biroq Temur davlati qudratiga Juchi ulusi tarkibidagi Oltin o'rda va Oq o'rda doimo rahna solib turadi.

1379-yili Amir Temur To'xtamishning Oq o'rda taxtiga ko'tarilishiga yordam beradi. Biroq Mamay ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng, To'xtamish Oltin o'rdadagi oliy hokimiyatni egallab oladi va Temur tasarrufidagi yerlarga hamla qila boshlaydi. Bunga javoban Amir Temur To'xtamishni 1391-yili Qunduzchi va 1395-yili Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi vodisida qaqshatqich mag'lubiyatga uchratadi. Natijada To'xtamish kuchlari shunchalar zaiflashdiki, Temur uchun Volgabo'yiga, Oltin o'rda poytaxti - Saroy Berkka to'g'ridan-to'g'ri yo'l ochiladi. Shahar ishg'ol etiladi.

1398-1399-yillarda mashhur hind yurishi amalga oshirilib, u yurtidan katta o'lja olib kelinadi. 1400-yili Amir Temur turk sultoni Boyazid I va misr sultoni Farajga qarshi urush boshlaydi. 1402-yili Anqara yaqinida usmon sultoni usil-kesil tor-mor qilinadi va bu hol Istanbulni usmonli turklar tomonidan istilo etilishini 50 yilga kechiktiradi. 1404-yil boshida Temur o'zining 200 ming lashkarlik qo'shini bilan Xitoyga yurishga hozirlik ko'radi. Biroq 1405-yilning 18 fevralida Temurning O'trorda vafot etishi tufayli bu yurish amalga oshmay qoldi.

Amir Temur hukmronligi davrida ulkan imperiyaning markazi bo'lgan Movarounnahrda iqtisod, savdo va madaniyat yuksak darajada ravnaq etdi. Temuriylar uyg'onishi davri bo'lmish XIV-XV asrni Markaziy Osiyo tarixidagi "oltin asr", deb ataladi. Bu asr jahonga mashhur olimlar, buyuk shoirlar va rassomlarni tuhfa etdi. Isfaxoniy o'zining "Buxorolik mehmon kitobida" Samarqandda paxtachilikning rivojlanishi hamda paxta tolasi va shoyi matolarining ishlab chiqarilishi haqida bayon etgan. Temur dunyo savdogarlar tufayli obod bo'ladi, deb hisoblagan va binobarin yangi

yo'llar, savdo inshootlarini bunyod etish uchun katta mablag'lar sarf etgan. Aynan Temur zamonida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Yevropaning olis yurtlari - Ispaniya, Fransiya va Angliya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlar kengaygan.

TEMURIYLAR DAVLATI (1405-1450)

Amir Temur vafotidan so'ng besh yil mobaynida Movarounnahrda xonliklararo va sulolalar o'rtasida urishlar davom etgan. 1409-yili Temur o'g'li Shohruh (1376-1447) o'z ukasining o'g'li - Halilsultonni yengib, rasman yagona temuriylar davlatining hukmdoriga aylanadi. Ammo amalda esa bu imperiya ikki alohida davlatga ajralgan edi. Shohruh markazi Xirot bo'lgan Xurosonni boshqargan, poytaxti Samarqand bo'lgan Movarounnahr esa uning o'g'li Mirzo Ulug'bek (1394-1449) tasarrufiga o'tgan. Bu ikki davlat kichik feodal yerlari birlashmasidan tashkil topgan bo'lib, ular katta hokimiyatga da'vogar temuriylar tomonidan boshqarilgan. Eron hukmdori etib tayinlangan Shohruh nabirasi Sulton Muhammad mustaqil siyosat yurita boshlagani tufayli shaxsan Shohruh ko'psonli qo'shin yordami bilan mamlakatda tartib o'rnatishga majbur bo'ladi. U quyi Sirdaryodagi voqealar jarayonini diqqat bilan kuzatib turadi, zotan bu yurt dan turib dashti qipchoqlik o'zbeklar Xorazmga tez-tez hamla uyushtirishadi. 1419-yili u Barakni qo'llab-quvvatlab, uni ko'chmanchi o'zbeklar ulusi xoni bo'lishiga yordam beradi. Ulug'bek yordami bilan xon Shermuhammad uzoq nizolardan so'ng Mo'g'uliston taxtini egallaydi, biroq ko'p o'tmay Ulug'bek o'z noiblariga qarshi urushishga majbur bo'ladi.

1425-yili Ulug'bek mo'g'ullarni tor-mor qiladi. 1427-yili Barak bilan munosabatlar yomonlashgach, u quyi Sirdaryoga yurish uyushtiradi, ammo natijada qaqshatqich mag'lubiyatga uchraydi. 1447-yili Shohruh o'limidan so'ng Ulug'bek Xirot va Xurosonni zabt etishga urinib ko'radi, biroq buning uddasidan chiqa olmaydi. 1448-yili u o'g'li Abdullatif bilan Xirotga yana yurish qiladi va bu safar shaharni ishg'ol etadi. Xurosonni zabt etishga xurosonlik amirlar isyoni hamda xon Abdulxayr boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahrda bostirib kirishi monelik qiladi. 1449-yili Abdullatifning otasiga qarshi fitnasi Ulug'bekning o'limi bilan tugaydi va Abdullatif taxtga o'tiradi. Ammo zodagonlar va xalq tomonidan nafratlangan Abdullatif fitna natijasida 1450-yilning 8 mayidayoq o'ldiriladi. Hokimiyat temuriy Abdulla ihtiyoriga o'tadi va u Ulug'bek siyosatini tiklashga intiladi.

TEMURIYLAR DAVLATI (1451-1507)

Turk zodagonlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan temuriy Abdullaga qarshi Xo'ja Ahror (1404-1490) boshchiligidagi naqshbandiy tariqati yordamiga suyangan Buxoro amirlari taxtga o'z nomzodlarini ilgari suradilar. Bu talabgor Amir Temur o'g'li Mironshoh nabirasi Abusaid (1451-1468) edi. Abusaid ko'chmanchi o'zbeklar xoni Abulxayrni ittifoq tuzishga ko'ndiradi. 1451-yili yozida Samarqand yaqinida hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi. Bu jangda ko'chmanchi o'zbeklar g'olib chiqishadi, Abdulla qo'shini parokanda bo'ladi, uning o'zi esa o'ldiriladi. Abusaid Msamarqand va Movarounnahrda hokimiyatni egallaydi. Xo'ja Ahror uning yaqin maslahatchisi etib tayinlanadi. Abu Said Xurosonni ishg'ol eta olmaydi, zero Xirot taxtiga 1452-yildan to umrining oxirigacha, ya'ni 1457-yilga qadar Shohruh nabirasi Abulqosim Bobur egalik qilgan. Ikki hukmdor o'rtasidagi munosabatlar adovatli bo'lgan. 1457-yili Abusaid Hirot taxtini egallab oladi va vaqtinchalik ikki davlatni o'zaro birlashtirishga erishadi.

1468-yili Abusaid Eronni zabt etish uchun safarga o'tlanadi, biroq undan qaytib kelmaydi. Sulton Xusayin (1469-1506) fursatdan foydalanib Hirot hokimiyatini egallab oladi. Abusaid o'g'illari hokimiyat uchun kurashdan voz kechib Movarounnahrda jo'nab ketishadi. XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr siyosiy parokandalik davrini boshidan kechiradi. 1469-yildan 1494-yilgacha Samarqandda Abusaid o'g'li Sulton Ahmad (amalda hokimiyat Xo'ja Ahror va naqshbandiy tariqati tasarrufi ostida bo'lgan), Buxoroda - Sulton Alimirza, Farg'onada esa Zahiriddin Muhammad Bobur hukmdorlik qiladi. Aynan Bobur Shaybonixon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklarning bosqiniga astoydil qarshilik ko'rsatadi. 1497-yili Bobur boshqargan andijonliklar qo'shini Samarqandni ishg'ol etadi. 1501-yilning bahorida Bobur Shaybonixon bilan jang qilish uchun Samarqandni tark etadi, biroq Kuxak daryosi yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchraydi. Bobur Movarounnahrni tark etib Kobulga ketishga majbur bo'ladi. Shaybonixon Movarounnahr va Xurosonga jadallik bilan hujum boshlaydi. 1501-1506-yillar davomida u Samarqand, Toshkent, Kat va Buldumsoz, Urgench, Balxni bosib oladi. Keksayib kuchdan qolgan Sulton Xusayin Shaybonixonga jiddiy qarshilik ko'rsata olmaydi. Xorazm Shaybonixon tomonidan egallab olingandan so'nggina Sulton Xusayin yurish uyushtirishga qaror qiladi, ammo uning boshlanishida vafot etadi. Hirotida uning o'rniga ikki voris - o'g'illari Badi az-Zamin va Muzaffar Xusayin tayinlanadi. Ular o'rtasidagi ixtiloflar Hirotning tushkunlikka yuz tutishini tezlashtirdi. 1507-yili Shaybonixon Hirotni ishg'ol etdi.

SHAYBONIYLAR DAVLATI

Shayboniylar davlatining poytaxti dastavval Samarqand bo'ldi. Ubaydullaxon (1533-1539 yy.) hukmdorligi davrida murakkab harbiy-siyosiy vaziyatga qaramasdan fan va madaniyat rivojiga katta e'tibor berilgan. Ubaydullaxon o'z ta savodli inson bo'lgan, u Qur'oni Karimni mohirona qiroat qilib, turkiy tildagi sharhlar bilan ta'minlagan, shuningdek, usta sozanda va iqtidorli xonanda bo'lgan. Abdullaxon II (1557-1598yy.) nomi bilan yagona kuchli davlat barpo etish harakati bog'langan. U 1557-yil Buxoroni zabt etadi, 1561-yil bu yerga poytaxt ko'chiriladi va davlat Buxoro xonligi nomi bilan yurita boshlanadi. Abdullaxon II hukmdorligi davrida bunyodkorlik ishlari quloq otadi- Karmanada Zarafshon daryosi ustiga ko'priq quriladi, Balx va Buxoroda ko'p sonli madrasalar qad rostlaydi. Xon imom Abubakr Saadiy maqbarasi atrofida masjid, madrasa, turar joy binosi va boshqa imoratlardan tashkil topgan majmuani bunyod etadi. 1598-yilda Abdullaxon vafot etgach yagona o'zbek davlatini yaratish umidi ham so'nadi. Shayboniylar sulolasining so'nggi vakili Pirmuhammad o'rtamiyona shaxs bo'lib, joylardagi hukmdorlar o'rtasida siyosiy ta'sir kuchiga ega emas edi. Natijada yuzaga kelgan boshboshdoqlikka barham bera olmay, u tez orada o'zaro janjallarda qurbon bo'ladi. Buxoro xonligining ichki va tashqi dushmanlari markaziy hokimiyat inqirozi va mamlakatdagi porakandalikdan zudlik bilan foydalanib qolishdi. Janubda Eron shohi Abbas Sabzavor, Mashhad va Hirotni egallab oldi, Balx hokimligiga o'z gumashtasi Muhammad Ibrohimni tayinladi. Qozoq sultonlari yirik hududlardan biri Toshkentni zabt etishdi. Xorazm yana mustaqillikka ega bo'ldi. "Butun davlatda tartibsizlik va boshboshdoqlik yuzaga keldi, hech kim boshqa birovga bo'ysinishni istamasdi",- deb yozgan edi o'sha yillar haqida Muhammad Yusuf Munshiy. O'zaro nizolar va urushlar oqibatida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tashkil topdi.

XIVA XONLIGI

1505-yil Shayboniyxon qoʻshinlari Xorazmni egallab oladi. Lekin 1512-yilga kelib xonlik hokimiyati koʻchmanchi oʻzbeklarning boshqa urugʻi(shajarasi) rahbari Ilbarsxon qoʻliga oʻtadi. Shu vaqtdan boshlab Xiva xonligi yuzaga keladi, uning poytaxti turli yillarda Vazir, Qoʻhna Urganch va Xiva shaharlari boʻlgan. Xonlik tarkibiga Xorazmdan tashqari Mangʻishloq, Balxan togʻlari, Dehiston, Oʻzboy(Uzboy) va Oʻrta Xuroson hududlari kirgan. Buxoro xonligi bilan Oʻrta Osiyoda hukmronlik huquqi yoʻlidagi kurashda Xiva askarlari Qorakoʻl, Chorjoʻy, Vardanzini xorabazorga aylantirdi va Karmanagacha yetib keldi. 1662-yil Xiva xoni Abulgʻozi navbatdagi jangdan soʻng Buxoro xoni Abulaziz bilan sulh tuzdi. Lekin uning oʻgʻli Anushaxon (1663-1687yy.) davrida Buxoroga hujumlar yana davom ettirildi. 1685-yil xivaliklar Samarqandni egallab olishga muvaffaq boʻlishdi. Lekin Gʻijduvon yonida Anushaxon magʻlubiyatga uchradi va Samarqandni tashlab chiqishga majbur boʻldi. Koʻp oʻtmasdan Buxoro xoni Anushaxonga qarshi fitna uyushtirdi, unda Anushaning oʻgʻli Ernak(Ereng) ham ishtirok etdi. 1687-yil Anusha hibsga olinib, koʻzi koʻr qilindi. 1668-yil Buxoro xoni Subhonquli Xorazmni oʻziga boʻysindirdi va uning hukmdori etib Shohniyozni tayinladi- keyinchalik u xonlik unvonini qabul qildi. Shohniyoz xonlik hokimiyatini mustahkamlash va Buxoroga tobelikdan xalos boʻlishga intildi. Shu maqsadda 1700-yil Buxorodan yashirin holda Petr I ga elchi joʻnatib, qoʻl ostidagi xalqi bilan oʻzini Rossiya fuqaroligiga qabul qilishni soʻradi. Xon Arab Muhammad (1702-1714yy.) ham Rossiya koʻmagiga umid qilgan koʻrinadi. Shergʻozixon (1715-1728yyy.) hukmronligi davrida feodal fitnalari davlatni boʻlak-boʻlakka ajratib tashlagan.

1717-yil Xiva xonligi Rossiya davlatining A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy ekspeditsiyasi hujumini bartaraf etishga muvaffaq boʻlgan. Shergʻozidan soʻng xonlik taxtiga Ilbars (1728-1740yy.) oʻtirdi. Eron shohining Afgʻoniston va Hindistonga qilgan yurishidan foydalangan Ilbars Xurosonga hujum qildi. Ushbu voqea, shuningdek Xiva tomonidan Eron hukmronligining rad etilishi va Buxoroni harbiy jihatdan qoʻllab quvvatlanishi Nodirshohni Xorazmga yurish qilishga undadi. Hazorasp yonida Ilbars magʻlub boʻldi. Toʻrt kunlik qamaldan soʻng Nodirshoh poytaxtni zabt etdi. Xiva armiyasining katta qismi Nodirshoh qoʻshinlari tarkibiga kiritildi. Xivada Nodirshoh vakili va Eron harbiy garnizoni qoldirildi. Lekin xonlikning shimoliy qismida Eron hukmronligi kuchga ega emas edi. Bu yerda orolliklar orasida 1730-1732-yillarda Rossiya fuqaroligini qabul qilgan Kichik qozoq ulusi xoni Abul Xayrning oʻgʻli Nuralining mavqei baland edi. 1741-yil xivaliklar Eronga qarshi bosh koʻtarishdi. Xiva qoʻzgʻolonchilar tomonidan ozod etildi hamda vakil va garnizon yoʻq qilindi. Xonlik taxtini Nurali egalladi. Bu voqealardan xabar topgan Nodirshoh oʻgʻli Nurullomirzoga Xorazmga qarshi yurishni buyuradi. Nuralini taxtga koʻtargan Xiva korchalonlari Marvga boʻyin egib borishadi. Ularning iltimosiga koʻra Nodir Xiva xonligiga Ilbarsning oʻgʻli Abu Muhammadni tayinlaydi. XVIII asrning 40-yillarida Xivada bir necha xon almashti.

QOʻQON XONLIGI

XVIII asr boshida Ashtarxoniylar xonligida hukm surgan siyosiy inqiroz sharoitida Fargʻona Buxorodan ajralib chiqadi. Markazi Qoʻqonda joylashgan mustaqil davlatga dastavval hojalar, keyin Ming xonlar sulolasi hukmronlik qila boshlaydi. Xonlik oʻz tarkibiga Namangan, Qoʻqon, Andijon va Margʻilon viloyatlarini kiritdi. Birinchi hukmdor etib oʻzbeklarning Ming qabilasidan Shohruhbiy eʼlon qilindi. 1721/22-yillar Shohruh amirlarning baʼzi guruhlari oʻrtasidagi nizolar

oqibatida halok bo'ldi. Uning o'g'li Abdurahimbiy (1721/17-1733yy.) Xo'jand va Andijonni xonlikka qo'shib oldi, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzaxni ishg'ol qildi. Uning akasi Abdukarim (1733-1747/48yy.) hukmronligi davrida O'sh zabt etildi. Keyingi yigirma yillik hukmdorlarning tez-tez almashib turishi bilan ajralib turadi. 1770-yil Qo'qon zodagonlari Norbo'tani (1770-1800yy.) hukmdor deb e'lon qilishdi. U Chust, Namangan va Xo'jand hukmdorlarining ajralib chiqishga bo'lgan harakatlarini bosishga muvaffaq bo'ldi. Norbo'tabiy Toshkentga ham qo'shin yuboradi, lekin shaharni bo'ysindira olmaydi. Norbo'tabiy davrida nisbatan siyosiy osoyishtalikka erishildi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy taraqqiyotga yo'l ochdi. Sug'orish tizimi kengaytirildi, yangi madrasalar, jumladan, Mir madrasasi bunyod etildi. Norbo'taning o'g'li Olimbek (1800-1809yy.)

Qo'qonning siyosiy mavqeini sezilarli tarzda ko'tardi. Olimxon hokimiyatni markazlashtirishga bo'lgan harakatlarida o'zi tog'li tojiklardan tashkil qilgan yollanma qo'shinga suvandi. U Toshkent va Farg'onani bo'ysintirdi, O'ratepaga bir necha marta yurish qildi. Uyushtirilgan suiqasd oqibatida Olimxon o'ldiriladi va taxtga uning akasi Umarxon (1809-1822yy.) ko'tariladi. U Buxoro amiri Haydar bilan shartnoma tuzdi va Sirdaryoning quyi oqimigacha bo'lgan yerlarni saltanatiga qo'shib oldi. Toshkent, Buxoro va Xiva yo'llari kesishgan joyda u Oqmachit istehkomini bunyod qildi. "Musulmonlar amiri"- "amir ul muslimin" unvonining sohibi bo'lmish Umarxon o'z nomidagi tangalarni zarb etgan. Uning hukmdorligi chog'ida Qo'qonda ham Buxoro xonligidagi kabi ma'muriy tizim joriy etilgan. Umarxonning merosxo'ri etib uning 12 yoshli o'g'li Muhammad Ali (Madali) (1822-1842yy.) tayinlandi. Madali hukmronligini otasi zamonida ham unga yoqmagan kishilarni qatl qilishdan boshladi. U Sharqiy Turkiston va Qashqarga bir necha muvaffaqiyatli yurishlarni amalga oshirdi, Oloy tog' tizmasi ortidagi tojiklarni bo'ysindirishga erishdi. Uni tilyog'machilar "g'ozi" (e'tiqod yo'lidagi kurashchi) deb atashsada ruhoniylar dinni bulg'agan va xudodan qaytgan kishi, deya hisoblashar edi. Xon g'anamlari Buxoro amiriga shikoyat yo'lladilar. 1840-yil amir elchisi orqali Qo'qonga otasining xotini bilan nikoh tuzganligi uchun Madalixonni kofir deb e'lon qilgan fatvoni jo'natdi. Shundan so'ng Madalixon Buxoroga qarshi urush harakatlarini boshladi, biroq mag'lubiyatga uchrach, o'zining Buxoro tobeligini tan oldi va amirlik foydasiga Xo'janddan voz kechdi. 1842-yil amir Nasrullo Qo'qondni zabt etib, xonlikni Buxoroga qo'shib oldi. Madalixon qatl etildi va tez orada Toshkent ham qo'lga kiritildi.

BUXORO AMIRLIGI

1758-yil Rahimbiy vafotidan so'ng mang'itlar amirlik taxtiga uning amakisi Miyonko'l hokimi Doniyorbiy (1758-1785yy.) nomzodini surishadi. Lekin u qat'iy markaziy hokimiyatni saqlab qololmadi. Mang'itlarning tarafdorlari va g'anamlari o'rtasidagi o'zaro janjallar, joylardagi hokimlarning mustaqillikka bo'lgan intilishlari o'n yillarga cho'zilib ketdi. 1784-yil Doniyorbiyning bo'shligidan norozi bo'lgan Buxoro ahli qo'zg'olon ko'tardi va amir hokimiyatni o'g'li Shohmurodga (1785-1800yy.) topshirdi. Shohmurod yangiliklarni Arkda saroy ahli guvohligida ikkita yirik amaldor- Davlat qushbegi va Nizomiddin qozikalonni qatl etishdan boshladi. Shundan so'ng Shohmurod Buxoro ahliga ularni bir necha soliqdan ozod etuvchi imtiyozli hujjatni tantanali tarzda topshirdi. Hujjatning matni tosh lavhada kesilgan bo'lib, u katta jome' masjidining ayvoniga o'rnatildi. Shohmurod "jo'l" ("jul") deb nomlangan va urush holatida qo'shin saqlash maqsadida foydalaniladigan yangi soliq turini joriy qildi. Hokimiyatni o'z

qo'lida jamlab olgach, u xonlik unvonidan voz kechdi va amirlik darajasida qoldi.

Taxtga esa Shohmurod Chingizxon avlodlaridan bo'lgan Donishmandchini, keyinroq esa Abulg'ozini ko'tardi, lekin ular amalda hokimiyatga ega emasdilar. 1785-yil Shohmurod pul islohotini o'tkazdi hamda 0,7 misqollik (3,36 g) to'la qimmatli kumush tangalar va bir xil shakldagi oltin tangalarni zarb etishni yo'lga qo'ydi. U sud mahkamasiga ham shaxsan rahbarlik qildi. Shohmurod Buxoro amirligi tarkibiga Amudaryoning chap sohilidagi hududlarni, jumladan, Balx va Marvni qaytardi. 1786-yil u Karmanada xalq qo'zg'olonini bosdirdi, keyin Shahrisabz va Xo'jandga muvaffaqiyatli yurishlarni amalga oshirdi. Shohmurod afg'on hukmdori Temurshohdan ustun kelib, asosan o'zbeklar va tojiklar yashaydigan janubiy Turkistonni o'z qaramog'ida saqlab qolishga erishdi. Amir Haydar (1800-1826yy.) otasidan so'ng taxtga o'tirgan vaqtda butun Mavorounnahr uning hukmiga bo'ysinar edi. Haydarning taxtga ko'tarilishi ommaviy qo'zg'olonlar va qatllar bilan to'g'ri keldi. 1800-yil Marv turkmanlari bosh ko'tarishdi. Ichki janjallarga ko'p o'tmasdan Qo'qon bilan O'ratepa uchun urush qo'shildi. Haydar ushbu shaharni tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Amir Haydar davrida siyosiy tizim yakka hokimiyatchilik tomon intilayotgan markazlashgan monarxiyadan tashkil topgan edi. Amirga 4 ming kishigacha yetadigan byurokratik mahkama xizmat qilardi. Armiyaning miqdori oshdi. Faqat Buxoroning o'zida 12 ming harbiydan iborat qo'shin turardi. Ahmad Donishning yozib qoldirishicha, Amir Haydar boshqaruv vaqtiga "har 3-6 oyda yuzaga keladigan to'xtovsiz feodal urushlar davri" deya baho berish mumkin. Haydardan so'ng taxtga uning o'g'li Nasrullo (1826-1860yy.) o'tirdi.

Unga hokimiyat sari yo'l ochish maqsadida akalari Husayn va Umar o'ldirildi. Armiya va ruhoniylarga suyangan Nasrullo zodagonlarni jilovlash maqsadida feodal tarqoqlikka qarshi qat'iy kurash olib bordi. Hukmronligining birinchi oyida u har kuni 50-60 tadan kishini qatl qildi. Nasrullo shu paytgacha amirlik tarkibiga faqat nomigagina kirgan viloyatlarni birlashtirishga erishdi. Viloyatlarni boshqarishga o'ziga mute' bo'lgan "nasl-nasabsiz" kishilarni tayinladi. Nasrullo amirligi chog'ida Xiva va Qo'qon xonliklari bilan Marv, Chorjo'y, O'ratepa, Xo'jand kabi chegarada joylashgan alohida hududlar uchun bo'lgan tinimsiz urushlar davom etib turdi. Shahrisabz va Kitob hukmdorlarining qarshiligi, ayniqsa kuchli bo'ldi. Bir necha harbiy yurishlardan so'ng 1853-yilga kelib ular Buxoroga bo'ysindirildi. Amirlik tarkibiga faqat Zarafshon daryosining o'rta va quyi oqimidagi vohagina barqaror kirgan edi.

O'ZBEKISTON XX ASRNING 20-40-YILLARIDA

1924-yili O'zbekiston respublikalardan biri sifatida Sovet Ittifoqi tarkibiga kirdi. 1927-yilning martida O'zbekistonning birinchi Konstitusiyasi qabul qilindi. O'sha yillari xalq xo'jaligi va madaniyatni rivojlantirishda respublikalararo boshqaruv organlari - O'rta Osiyo iqtisodiy kengashi (1923 y.) Qisqa vaqt ichida respublikada fuqarolar urushining ayanchli oqibatlarini bartaraf etildi. Sanoat jadal sur'atlarda rivojlandi. Mashinasozlik, metallni qayta ishlash va energiya sohalarida eng salmoqli o'zgarishlar yuz berdi. 1928-yildan 1942-yilgacha bo'lgan davrda 515 ta sanoat korxonasi va elektrostansiya ishga tushirildi. Ular orasida Chirchiq elektrokimyo kombinati, Toshkent qishloq xo'jaligi zavodi, Quvasoy sement va ohak zavodi, Toshtekstilkombinati va boshqalar bor edi. 1925-1929-yillarda yer-suv islohoti amalga oshirildi. Qishloq xo'jaligi va irrigasiya butunlay qayta ta'mirlandi, yangi kanallar va suv omborlari qurib

bitirildi. 1941-yilga kelib O'zbekiston aholisining savodxonlik darajasi 95 % ni tashkil etdi. Turkiston davlat universiteti (1920) oliy ta'limning yirik markaziga aylandi. 20-yillarning oxiriga kelib tarkibida mingdan ziyod ilmiy xodimlar mavjud o'zlab ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat ko'rsatar edi. 1930-yildan boshlab Toshkent O'zbekiston poytaxtiga aylandi.

1937-yilning fevralida O'zSSRning yangi konstitusiyasi qabul qilindi. Yangi konstitusiyaga muvofiq Y.Oxunboboev va F.Xo'jaev rahbarligida respublika boshqaruv organlariga saylovlar bo'lib o'tdi. Respublikaning kundalik hayoti, butun SSSRdagi ahvol singari, Stalin shaxsiga sig'inishning avj olishi hamda totalitar boshqaruv usullarining kuchayishi shiori ostida o'tdi. O'zbekistondagi ommaviy qatag'onlik taniqli partiya va davlat arboblarning xibsga olinishidan boshlandi. Siyosiy boshqaruv organlari F. Xo'jaev, A. Ikromov, D. Manjar va boshqalarga nisbatan qalbaki ayblovlar bilan jinoiy ish qo'zg'adi. 1937-yilning avgust-sentyabr oylarida yuzlab kishilar, shu jumladan, O'zbekiston kompartiyasi rahbarlari S. Boltaboev, I. Xudoyqulov, A. Sexer, M. Shermuxamedov, M. Usmonov va boshqalar xibsga olindi. 1938-yilning bahoriga qadar obkom, shaharkom, raykom partiyalari kotiblarining 60 % dan ziyodi qatag'on qilindi.

O'ZBEKISTON URUSH YILLARIDA (1941-1945 YY.)

1941-yilning 22-iyunida Germaniya hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimni buzib Sovet Ittifoqiga qo'qisdan hamla uyushtirdi. 23 iyun kuniyoq Toshkentda ko'p ming kishilik yig'in bo'lib o'tdi. Unda toshkentliklar front va front ortida butun sa'y-harakatlarini fashizm ustidan g'alaba uchun safarbar etishga tayyorliklarini bildirishdi. Urushning dastlabki oylarida O'zbekistonda frontga jo'nab ketish to'g'risida 32 mingdan ziyod ariza berildi. 1941-yilning noyabriga qadar respublikada 14 ta milliy brigada - 9 ta alohida o'qchi va 5 ta otlq brigada tuzildi. 1941-1943-yillari O'zbekiston urush tufayli Rossiya, Ukraina va Belarussiyadan evakuasiya qilingan 1 million qochoq, shu jumladan 200 ming bolani o'z bag'riga qabul qildi. Harbiy holat front ortini mustahkamlash uchun favqulotda choralarni ko'rishni taqozo etardi. O'zbekistonga yuzdan ziyod sanoat korxonalari ko'chirildi. Ular orasida Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, Rostselmash, "Krasn'y Aksay", Stalingrad kimyoviy kombinati, Moskvaning "Pod'emnik", "Elektrostanok" zavodlari va boshqa ko'plab korxonalar bor edi. 1941-yilning oxiriga kelib evakuasiya qilingan 50 dan ziyod korxonalar ishga tushirildi. 1942-yilning o'rtalarida O'zbekistonga ko'chirilgan barcha korxonalar to'la quvvatda ishlab, front uchun harbiy texnika, o'q-dorilar, kiyim-aslahalar yetkazib bera boshladi. Respublikaning sanoat korxonalari ham urushning dastlabki kunlaridanoq mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarishga qayta moslashtirildi.

Jumladan, Tashselmash, parovoz remont zavodi, Chirchiq elektroximiya va boshqalar. 1941-1945 urush yillari davomida O'zbekistonda 280ta ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. 1943-yilda umumiy ishlab chiqarish hajmi respublikaning xalq xo'jaligida 75% ga oshdi. 1942-yilning kuzidan Bekobod metallurgiya zavodining qurilishi boshlandi. Aniqlangan volfram, molibden va mis zahiralari asosida rangli metallurgiya sohasi tarkib topdi. Olmaliq mis konidan foydalanish yo'lga qo'yildi. 1940 -1943-yillar davomida yangi elektrostansiyalar qurilishining hisobiga elektroenergiya ishlab chiqarish 3,5 barobarga ortdi. 1941-yildan 1945-yilgacha sanoatning hamma sohalarini qamrab oluvchi 280 ta yangi korxonalar qurib bitkazildi. O'zbekiston mamlakatning asosiy harbiy salohiyat markazidan biriga aylandi. Frontga 2000 dan

ortiq samolet, 1,7 ming dan ortiq aviamotor, shuncha minamet, 22 million minalar, 560 ming snaryad, millionga yaqin granatalar, 330 ming parashyutlar, 5 ta bronopoezd, 100 ming km dan oshiq turli xildagi simlar jo?natildi.

O?zbekistonga 22 ta ilmiy-tekshirish instituti, 16 ta oliy talim muassasalari, 2 ta kutubxona ko?chirib keltirildi. 1943-yilning 4 noyabrida Fanlar Akademiyasining tantanali ochilishi bo?lib o?tdi. Uning birinchi Prezidenti etib T.N. Qoriniyozov saylandi. 1944-yilning oxiriga kelib Fanlar Akademiyasining tarkibiga 22 ta ilmiy muassasalar kirar edi. 1943-yilga kelib esa respublikada 41 ta oliy talim muassasalari faoliyat yuritgan, jumladan 12 tasi ko?chirib keltirilgan, 52 tasi o?rta mahsus bilim yurtlari edi. Urush yillari davrida ularda 20 mingdan ortiq mutahassislar tayyorlandi. Milliondan ortiq o?zbekistonliklar urush frontlarida jang qilganlar. O?nlab milliy jangovor tuzilmalar tashkil etildi. Ulardan ko?pchiligi ordenlar bilan taqdirlandi va gvardiya unvonlarini oldilar. O?zbekistonlik jangchilar Brest qal'asining (D.Abdullaev, T.Aliev, Isaev, Yusupov, Laenkov F, U. Ataev va boshqalar.) Kiev, Smolensk, Odessa, Sevastopol va boshqa shaharlarning himoyasida mardonovor qatnashganlar.

O?ZBEKISTON 1945-1991-YILLARDA.

Urushdan keyingi davrda O?zbekistonda rivojlangan transport va energo tizimlari bilan ta'minlangan ko?ptarmoqli sanoatning yuksalish jarayoni davom etdi. Shaharlar ilmiy va madaniy markazlarga aylanib borardi. 1947-yilda O?zbekiston Davlat katta akademik teatri, 1964-yilda Samarqandda opera va balet teatri ochiladi. Qishloq o?jaligida jadal usullar qo?llanilib mexanizasiyalashtirildi. 1984-yilga kelib 4175 ming ga ekin maydonlari o?zlashtirildi, ulardan 2056 ming ga paxta dalalari edi. Respublikani urushdan keyingi davrlarda , turli yillarda U.Yusupov, A,Niyozov N.Muhiddinov, Sh.Rashidov boshqardi.

80-yillarda SSSR siyosiy va mafkuraviy inqirozga duch keldi. Markazdan qochish hollari kuchayib bormoqda edi. SSSR hududida yashovchi xalqlar bu vaqtga kelib iqtisodiy va o?z milliy anglashining shunday darajasiga yetdiki, endi ittifoqdan iqtisodiy, davlat va siyosiy qaramlik xar bir respublikaning bundan keyingi ravnaqini orqaga tortuvchi holatga aylanib qolgandi. Kutilayotgan istiqbol uchun esa yangi sharoitlar kerak edi.

MUSTAQIL O?ZBEKISTON

O?zbekistonning 1991-yilning 31 avgustida mustaqillikni qo?lga kiritishi murakkab siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar ostida amalga oshdi. Jumladan, 130-yil davomida hukumronlik qilgan mustamlaka tizimi Respublikaning mustaqil rivojlanishiga to?squinlik qilib keldi.

Mustaqillikning e'lon qilinishi xalqning va hukumatning oldiga tubdan islohotlar o?tkazish vazifasini qo?ydi. Prezident I.Karimov boshchiligida hukumat tomonidan amalga oshirilgan ichki va tashqi islohotlar natijasida O?zbekistaon dunyo ham jamiyatida mustaqil r davlat sifatida olindi. Qisqa muddatlar davomida O?zbekiston o?z taraqqiyot yo?lini belgilab oldi.

I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va amalga tadbiiq etilgan "O?zbek modeli" yurtning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratdi. Qisqa muddatlar ichida don va neft mustaqilligiga erishildi, O?zbekiston agrar-hom-ashyo davlatidan tez rivojlanayotgan, zamonaviy texnika va tehnologiyalarni eksport qiluvchi davlatga aylandi. O?zbekiston tutgan yo?lining naqadar to?g?ri

ekanligi 2008-yilda boshlangan “jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi” davrida yana bir bor isbotlandi. Inqiroz davridan muvafaqqiyatli chiqqan «O'zbek modeli» xalqaro moliyaviy tashkilotlar va ekspertlar tomonidan yuksak ijobiy baholarga sazovor bo'ldi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hech bir davlat dunyo hamjamiyatidan ayri holatda rivojlanish olmaydi. Har tomonlama o'ylanib olib borilgan tashqi siyosat natijasida O'zbekiston 180dan oshiqroq dunyo davlatlari tomonidan tan olindi, 130 dan ko'proq davlatlar bilan diplomatic munosabatlar o'rnatildi, bugungi kunda O'zbekiston BMT, MDH, SHHT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar a'zo hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Evropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Yakin Sharq va Osiyo mintaqadagi davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida uning konstitutsiyasiga muvofiq insonlarning millati, tili, dinidan qati'iy nazar teng huquqliligi ta'minlangan. Bugungi kunda Respublikada yuzdan ortiq turli millat va elat vakillari inoqlikda yashamoqdalar, ular uchun zarur shart sharoitlar yaratilgandir.

2023-08-21 16:36:00